

O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASHDA TA’LIM TIZIMINING ROLI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-739-744>

Obidova Ruxshona Vohid qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti Turkiya tarixi yo‘nalishi
Turk-ingliz guruhi 3-bosqich talabasi
Obidovaruxshona56@gmail.com

Ilmiy rahbar: Isobek Xudaynazarov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda gender tenglikni ta‘minlash jarayonida ta‘lim tizimining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot Barqaror rivojlanish maqsadlarining beshinchi yo‘nalishi (SDG 5) doirasida amalga oshirilayotgan ta‘lim siyosati, huquqiy islohotlar hamda institutsional mexanizmlarni o‘rganishga qaratilgan. Maqolada umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim tizimida gender tenglik tamoyillarining joriy etilishi, ayollarning ta‘limga bo‘lgan teng imkoniyatlari va ularning ijtimoiy faolligini oshirishdagi ta‘limning roli yoritiladi. Shuningdek, ta‘lim orqali gender stereotiplarini kamaytirish va jamiyatdagi qarashlarning hozirgi sharoitlar ta‘sirida o‘zgarishi va shu kabi masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Gender tenglik, ta‘lim tizimi, ayollar huquqlari, SDG 5, ta‘lim siyosati.

Annotation: This article analyzes the role and significance of the education system in ensuring gender equality in Uzbekistan. The research focuses on examining educational policies, legal reforms, and institutional mechanisms implemented within the framework of Sustainable Development Goal 5 (SDG 5). The article highlights the integration of gender equality principles in general secondary, specialized secondary, and higher education, as well as equal educational opportunities for women and the role of education in increasing their social activity. It also analyzes issues such as reducing gender stereotypes through education and the transformation of societal attitudes under current conditions.

Keywords: Gender equality, education system, women’s rights, SDG 5, education policy.

Аннотация: В данной статье анализируются роль и значение системы образования в обеспечении гендерного равенства в Узбекистане. Исследование направлено на изучение образовательной политики, правовых реформ и институциональных механизмов, реализуемых в рамках Цели устойчивого развития 5 (SDG 5). В статье освещается внедрение принципов гендерного равенства в системе общего среднего, среднего специального и высшего образования, равные возможности женщин в получении образования, а также роль образования в повышении их социальной активности. Также рассматриваются вопросы снижения гендерных стереотипов посредством образования и изменения общественных взглядов под влиянием современных условий.

Ключевые слова: гендерное равенство, система образования, права женщин, SDG 5, образовательная политика.

Bugungi globallashuv sharoitida gender tenglik masalasi ijtimoiy adolat, inson huquqlari va jamiyatda barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, ta'lim sohasi gender tenglikni ta'minlashda asosiy tizimlardan biri bo'lib, u jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar, mehnat bozori hamda siyosiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, ayollar va erkaklar uchun ta'limga teng imkoniyatlarning yaratilishi gender tenglik madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, jamiyatda mavjud ijtimoiy stereotiplar, an'anaviy gender rollari va hududiy tafovutlar ta'lim sohasida gender tenglikni to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi ta'lim imkoniyatlari farqi, qizlarning ta'limdan erta chetlanishi, oilaviy majburiyatlarning ustuvor qo'yilishi kabi holatlar ayollarning ta'lim darajasi va keyinchalik mehnat bozoridagi ishtirokiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur maqolada O'zbekistonda ta'lim tizimi orqali gender tenglikni ta'minlash masalasi ilmiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi.

Gender tenglik masalasi bugungi kunda global taraqqiyotning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Gender tengligiga erishish - BMT va boshqa mintaqaviy tuzilmalar kabi universal xalqaro tashkilotlar kun tartibidagi global vazifadir. O'zbekiston bu sohada xalqaro hamkorlikni faol rivojlantirmoqda. 1979-yilgi “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida”gi konvensiya va 1995-yilgi “Pekin Harakatlar platformasi” deklaratsiyasi ishtirokchisi sifatida mamlakatimiz qo'mitaga muntazam ravishda milliy hisobotlarni taqdim etib, milliy harakatlar rejalarini ishlab kelmoqda (1). So'nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan gender tengligi sohasidagi hamkorlikka katta ahamiyat berilmoqda. Markaziy Osiyo ayollar yetakchilari forumlari va 2024-yilda Osiyo ayollar forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi, ularda 40 dan ortiq mamlakat va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi. Xususan, 2015-yil sentabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish kun tartibi doirasida gender tenglikni ta'minlash alohida strategik maqsad sifatida belgilangan. Ushbu global majburiyatlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanishning milliy maqsad va vazifalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror qabul qilindi. Mazkur hujjat O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash, ayollar va qizlarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun huquqiy va institutsional asos bo'lib xizmat qilmoqda.

SDG 5 bu - Barqaror rivojlanishning 5-maqsadi gender tengligini ta'minlash hamda barcha xotin-qizlar huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Barqaror rivojlanish maqsadlarining beshinchi yo'nalishi doirasida O'zbekiston tomonidan “Gender tenglikni ta'minlash va barcha ayollar hamda qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga qaratilgan to'qqizta milliy vazifa ishlab chiqildi. Ushbu maqsadlar doirasida mamlakat 2030-yilgacha ayollar va qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish, ularning siyosiy, iqtisodiy va

ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilish jarayonlarida to‘liq va samarali ishtirokini ta‘minlash majburiyatini olgan. Shuningdek, SDG 5 davlat dasturlarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini barcha boshqaruv darajalarida integratsiya qilishni nazarda tutadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda gender tenglikni ta‘minlash va ayollarning jamiyatdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirildi (2). Xususan:

ayollar huquqlariga oid qonunchilik bazasini takomillashtirish;

ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni rivojlantirish;

gender tenglik va ayollar huquqlari masalalarida jamoatchilik xabardorligini oshirish;

davlat boshqaruvi tizimidagi rahbar kadrlarning genderga oid huquqiy bilim va malakasini oshirish (3).

Mazkur yo‘nalishlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etib, ular gender tenglikni ta‘minlash, ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish hamda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Gender tenglikni ta‘minlash jarayonida ta‘lim sohasi muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta‘lim sohasida ham gender tengligiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatda ayollar va qizlarni himoya qilish uchun bir qator samarali choralar ko‘rildi: o‘quv dasturlari va o‘qitish usullariga, shuningdek, STEM ta‘limiga, ayniqsa qishloq joylarda gender yondashuvi joriy etilmoqda. Hozirgi kunda 1 million 300 ming talabaning yarmidan ko‘pi, ya‘ni 653 ming nafari qizlardir. Magistratura dasturida magistratura talabalarining 60 foizini qizlar tashkil etadi. Davlat magistraturada o‘qiyotgan ayollar va qizlarning shartnomalarini davlat byudjeti hisobidan rag‘batlantiradi va to‘liq to‘laydi. 2023-2024-yillarda ehtiyojmand oilalardan 1914 nafar qiz qo‘shimcha davlat grantlari yordamida universitetlarda o‘qishga qabul qilindi. 181 500 nafar qiz imtiyozli ta‘lim kreditlari oldi. Mahalliy byudjetlar hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardan, yetim bolalardan yoki ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talabalardan 2 mingdan ortiq talabaning shartnoma miqdori 14 milliard so‘mga qoplandi. Mamlakatda ayollar va qizlarning ta‘lim olish imkoniyatlari va shart-sharoitlarining yaxshilanishi zamonaviy bilim va kasblarni o‘zlashtirishga qiziqishning ortishiga turtki bo‘ldi, masalan, “Bir million dasturchi” ta‘lim loyihasi doirasida 47 foizini qizlar tashkil etdi. Ta‘lim sohasida ayollar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda ularning salohiyatini ochishda haqiqiy natijalar beradi. So‘nggi yetti yil ichida 5 mingdan ortiq ayolga falsafa doktori va fan doktori ilmiy unvonlari berildi. O‘zbekiston universitetlarida 14 mingdan ortiq ayol ilmiy izlanishlar olib bormoqda (4). Xususan, 2017-yildan boshlab ko‘plab oliy ta‘lim muassasalarida sirtqi va masofaviy ta‘lim shakllarining joriy etilishi yosh ayollarga farzand tarbiyasi va oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan bir qatorda oliy ta‘lim olish imkonini berdi. Bu holat ayollarning bilim olishdagi imkoniyatlarini kengaytirish va ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ta'limda gender tengligi va mehnat bozorida qizlarning ko'nikmalariga teng munosabatda bo'lish yanada adolatli va teng huquqli jamiyat qurishning kalitidir. O'zbekistonda qizlar va ayollarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishda sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, ta'lim tizimida gender tengsizligi ma'lum darajada saqlanib qolmoqda. Asosiy muammolardan biri, ayniqsa qishloq joylarda qizlarning maktabni erta tashlab ketish darajasi yuqori. O'g'il bolalarning ta'limini qizlarning ta'limidan ustun qo'yadigan an'anaviy qarashlar, shuningdek, iqtisodiy omillar bu tendensiyaga hissa qo'shadi. Maktabni erta tashlab ketgan qizlar ish joyida va hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni egallash imkoniyatini qo'ldan boy berishadi. Qizlar va ayollar uchun ko'p narsaga erishilgan bo'lsa-da, teng imkoniyatlar yaratish uchun hali ko'p ishlar qilinishi kerak aslida. So'nggi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda qizlar o'g'il bolalarga qaraganda oliy ta'limdan ancha chetda qolgan, universitetlarda o'qiyotgan talabalarning atigi 37 foizi qizlardir (5). Bundan tashqari, ish bilan ta'minlash sohasida yosh ayollar mehnat bozoridan juda chetda qolgan. Majburiy o'rta ta'limni tugatgandan so'ng, 19-24 yoshdagi yoshlarning 56 foizi ta'lim, ish yoki o'qitish sohasida emas. Ayollar uchun o'qish darajasi 18 yoshdan oshgandan so'ng tez o'sadi (1,7% dan 69% gacha) va 25-30 yoshlilar guruhida 74% ga etadi, erkaklar uchun esa bu odatda pastroq (maksimal 33,5%) va yosh bilan kamayadi (24,8% gacha). Shu bilan birga, dalillar shuni ko'rsatadiki, qizlar va yosh ayollar internet orqali onlayn ta'lim olishda ham to'siqlarga duch kelishadi. Hech qachon internetdan foydalanmagan 14-30 yoshdagi yosh ayollar soni shu yoshdagi erkaklarga qaraganda ikki baravar ko'proq 68,1% dan 34,3% gacha (6). Bundan ko'rinib turindiki, kam ta'minlangan va chekka hududlardagi oilalardagi qizlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ayollar uchun oliy ta'lim olish uchun imtiyoz, yordam berish muhim ahamiyatga ega va o'rta muddatli istiqbolida jamiyatlarning yanada barqaror va bardoshli bo'lishiga hissa qo'shadi.

Siyosiy hayotda ham sekin-asta ayollar ishtiroki kuchaya boshladi. 2019-yil 21-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senatining yalpi majlisida ayollarning jamiyatdagi roliga oid muhim masalaga e'tibor qaratib, ularning demokratik islohotlardagi faol ishtiroki zarurligini ta'kidladi. Aynan shu kuni mamlakat tarixida ilk bor ayol kishi - Tanzila Norboyeva O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi etib saylandi. Ushbu voqea ayollarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini kengaytirishda muhim bosqich bo'ldi. 2019-yil sentabr oyida qabul qilingan "Ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" hamda "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar O'zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini sezilarli darajada mustahkamladi. Mazkur qonun xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullangandi. Quvonarli tomoni shundaki, ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o'rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog'lik dolzarbligiga qaratilgan qonundir. Jumladan, qonunning 1-moddasida

qayd etilganidek, qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan O'zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir. Ana shunday salbiy holatlarga qarshi mazkur qonunning 2-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Ana shunday izchillik bilan amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida jamiyatimizda tinchlik va iqtisodiy barqarorlik ta'minlanmoqda. Gender tengligini ta'minlash bo'yicha davlat miqyosida ishlab chiqilgan qonunlar va dasturlar ham muhim ahamiyatga ega. Hatto Jahon Iqtisodiy forumi (The Global Gender Gap) o'tkazgan tadqiqot natijalariga qaraganda, xotin-qizlar erkaklarga nisbatan bir yilda qariyb 35 kundan ko'proq ishlar ekan. BMT Bolalar Jamg'armasi (YUNISEF) tadqiqotlariga qaraganda esa, qizlar o'g'il bolalarga nisbatan biror ishni bajarishda 35-36 foiz ko'p vaqt sarflar ekan (7). Bu hali ham dunyoda gender tengligiga erisha olinmayotganligini ko'rsatadi. Shu bois ham, 2019 yilning 2-sentyabrida qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati hisoblanadi (8). Ushbu qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda “gender” tushunchasiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ushbu sohada davlat boshqaruvi mexanizmlari belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan huquqiy, institutsional va ijtimoiy islohotlar “Barqaror rivojlanish maqsadlari”, hukumat qaror va qonunlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, xalqaro standartlarga mos ravishda olib borilmoqda. Shu bilan birga, ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini yanada kengaytirish, gender siyosatini monitoring qilish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha izchil choralar ko'rish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/key-issues-with-gender-equality>
2. <https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajpslc/article/download/4096/3816/4453>
3. <https://kun.uz/en/news/2022/03/02/state-to-pay-for-tuition-fees-of-girls-in-masters-degree>
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 28-dekabrdagi SQ-682-IV-sonli qarori tahririda
5. UNICEFning (2022) hisobotida mavjud bo'lgan o'spirin yoshdagi onalik

ta'sirining global va milliy sarhisoblar.

6. 2023-yil 11 apreldagi qonunning 5- kodeks va 10- qonunga (O'RQ-829, 31.10.2023) ga ko'ra gender tenglik bo'yicha keltirilgan masalalar.

7. 2021-2022 yillarda O'zbekistonda ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan 40 dan ortiq islohot va dastur, qonunlar (2022 yil dekabr-809-son) “gender auditi” qoidasi Ayollar va bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan bo'limi.

8. O'zbekistonda 2020-yil 20-sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida” gi O'RQ-637-sonli qonunga muvofiq O'zbekistonda gender tengligi bo'yicha qarashlar.